

37
P-15

PULATOVA DILFUZA
AZAMKULOVNA

ARALASHGAN TA'LIM SHAKLI DA
TALABALARNI TADQIQOTCHILIK
FAOLIGATIGA TAYYINLASH
TEKNOLOGIYALARI
MONOGRAFIYA



Sergey Iosofovich Gessen: "Oliy ilmiy maktab - bu
ta'lim va tadqiqot birlashadigan joydir"

Kitob shu yerda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

--	--

Tipografiya "Zebo Print" MCHJ tel. +998 54 673 66 56
+998 97 017 01 01

3
2
102
|
|
|
|
|
|
|
|
|
|

37
P-15

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

PULATOVA DILFUZA AZAMKULOVNA

ARALASH TA'LIM SHAROITIDA
TALABALARNI TADQIQOTCHILIK
FAOLIYATIGA TAYYORLASH
TEXNOLOGIYALARI

Monografiya

- 14700 / 3 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

«TGN PRINT»
TOSHKENT - 2025
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 37.013.2

KBK 74.03

P-15

Pulatova D.A. Aralash ta'lim sharoitida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari. «TGN PRINT», 2025. – 100 b.

Taqrizchilar:

G.Abdullayeva – Chirchiq davlat pedagogika universiteti pedagogika fanlari doktori, dotsent

X.Raximova – Qo'qon davlat pedagogika instituti pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Ushbu monografiyada talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda aralash ta'lim kabi zamonaviy yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari, aralash ta'limni tashkil etishning didaktik jihatlari yoritib berilgan. Monografiyada maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash amaliyotida aralash ta'lim muammosi holati tahlili, aralash ta'lim sharoitida talabalarning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-didaktik asoslari, aralash ta'lim sharoitida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari masalalari mohiyati bayon qilingan. Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalarini tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash va aralash ta'lim sharoitida ularning tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Monografiyadan tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, umumta'lim va professional ta'lim muassasalari rahbarlari hamda pedagoglari, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishi talabalarini, magistrantlari o'quv hamda amaliy ish faoliyati jarayonida foydalanishlari mumkin.

Ушбу монография Республика таълим маркази илмий Кенгашининг 2025 йил 27-январдаги 1-сон баённомаси билан наизрга тавсия этилган.

ISBN 978-9910-8650-4-6

MUNDARIJA:

IRISH.....	4
BOB. ARALASH TA'LIM SHAROITIDA MAXSUS PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	6
1-§.Aralash ta'limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik zarurati	6
2-§.Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning tashkiliy-pedagogik asreklari	20
3-§.Talabalarni tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etishda aralash ta'limning komreks imkoniyatlari.....	35
II BOB. ARALASH TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	44
2.1-§.Aralash ta'lim sharoitida talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning metodik modeli.....	44
2.2-§.Aralash ta'lim sharoitida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning o'quv-didaktik ta'minoti va tamoyillari.....	55
2.3-§.Aralash ta'lim sharoitida talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari	73
XULOSA.....	86
FOYDALANILGAN ADAVIYOTLAR RO'YXATI	88

KIRISH

Jahonning bir qator yetakchi oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'limning xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish kabi ustuvor vazifalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bo'lajak mutaxassislarda kasbiy, shu jumladan tadqiqotchilik kompetensiyasini oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Respublikamizda, so'nggi yillarda oliy ta'lim mazmunini xorijiy tendensiyalar asosida takomillashtirish, ta'lim oluvchilarda kasbiy rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ayniqsa, an'anaviy o'qitishga muqobil texnologiyalar (Face-to-face learning, Distance Education, E-Learning)ni takomillashtirish borasida tashkil qilishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'limning tadqiqotlar muhim o'rin egallamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, bu ta'lim muassasalarida, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida elektron ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning kasbiy, xususan AKTdan foydalanish hamda tadqiqotchilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotini keng joriy etish muhim o'ringa e'gallaydi. Oliy ta'limda talabalarning ilmiy tadqiqotchilik haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga imkon beruvchi elektron o'quv-axborot resurslarini yaratish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'qitishda bilish ehtiyojini faollashtiruvchi Blended Learning shaklini qo'llash Respublikamizning intellektual resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli islohotlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni rivojlantirish, o'qitishda bilish ehtiyojini ta'minlash maqsadida ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan faollashtiruvchi Blended Learning shaklini qo'llash Respublikamizning intellektual resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Oliy ta'limni yanada rivojlantirish to'g'risida bir qator muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim

xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilab borish kabi ustuvor vazifalar

Respublikamizda, so'nggi yillarda oliy ta'lim mazmunini xorijiy tendensiyalar asosida takomillashtirish, ta'lim oluvchilarda kasbiy rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bunda ayniqsa, an'anaviy o'qitishga muqobil texnologiyalar (Face-to-face learning, Distance Education, E-Learning)ni takomillashtirish borasida tashkil qilishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Ta'limning tadqiqotlar muhim o'rin egallamoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda oliy ta'lim tizimini tubdan yaxshilash, bu ta'lim muassasalarida, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida elektron ta'lim vositalarini samarali qo'llash orqali ularning kasbiy, xususan AKTdan foydalanish hamda tadqiqotchilikka oid kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotini keng joriy etish muhim o'ringa e'gallaydi. Oliy ta'limda talabalarning ilmiy tadqiqotchilik haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga imkon beruvchi elektron o'quv-axborot resurslarini yaratish, ijodiy fikrlashini rivojlantirish, o'qitishda bilish ehtiyojini faollashtiruvchi Blended Learning shaklini qo'llash Respublikamizning intellektual resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli islohotlarini shakllantirish ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni rivojlantirish, o'qitishda bilish ehtiyojini ta'minlash maqsadida ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan faollashtiruvchi Blended Learning shaklini qo'llash Respublikamizning intellektual resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020-yildagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan Oliy ta'limni yanada rivojlantirish to'g'risida bir qator muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Ushbu hujjatlarda ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish orqali oliy ta'lim sifatini oshirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish, individual ta'lim trayektoriyalariga asoslangan, talabalarda kreativ fikrlash, amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv rejalar ishlab chiqish orqali talabalar qiziqishlariga muvofiq ta'lim dasturlarini shakllantirish, talabalarda mustaqil ta'lim olish, tanqidiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv jarayonida kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o'quv jarayonini amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirish, pedagogik ta'lim infratuzilmasini yaxshilash, barcha oliy ta'lim muassasalarida dars mashg'ulotlari bo'yicha talabalar fikrini o'rganish (feedback) hamda o'zaro tashrif (peer review) tizimini rivojlantirish asosida talabalarga ta'lim

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-5847-son Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.10.2019-yil. URL: <https://lex.uz/ru/docs/4545887>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasining yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T.: 2017. – B. 39. www.lex.uz

I BOB. ARALASH TA'LIM SHAROITIDA MAXSUS PEDAGOGIKA YO'NALISHI TALABALARINI TADQIQOTCHILIK FAOLIYATIGA TAYYORLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI


1.1. Aralash ta'limni tashkil etishning ijtimoiy-pedagogik zarurati

Tezkor rivojlanib borayotgan davrda uzluksiz ta'lim mazmunining zamon talablariga to'liq mos kelmasligi ham kadrlarning mehnat bozorida maqsadli faoliyat yurita olmasliklariga sabab bo'lmoqda. Bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda oliy ta'limni modernizatsiya qilish bilan bog'liq innovatsion yondashuvlarning shaxsga-ehhtiyojga yo'nalganlik bilan bir qatorda ko'rib chiqish lozim. Shu sababli ta'lim jarayonlarini turli yangicha yondashuv, texnologiyalar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmonida yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-quvvatlash, barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash³ kabi vazifalar belgilanganki, ularning ijrosini amalga oshirish uchun avvalo oliy ta'lim tizimini rivojlantirish va ta'lim jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish orqali talabalarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish lozimdir. Shu bois oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari zimmasida hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni tashkil etishda zamonaviy yondashuvlardan foydalanish kabi majburiyat turibdi. Qolaversa, jamiyatimizga jadal ravishda axborot oqimining kirib kelishi hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanib borayotganligi barcha sohalarida kabi, ta'limda ham zamonaviy yondashuvlarni joriy etishni taqozo etadi. Oliy ta'lim tizimida shunday yondashuvlardan biri -Aralash ta'limdir.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli farmoni.

Aralash ta'lim("Blended Learning") bu auditoriyada olib boriladigan an'anaviy ta'limning elektron ta'lim elementlari (kompyuter grafikasi, audio, video, internet kabi maxsus axborot texnologiyalari) bilan birga tashkillashtiriladigan ta'lim jarayonidir. Aralash ta'lim jarayonida an'anaviy va elektron ta'lim fazalari davriy ketma-ketlikda o'zgarib boradi.

L.G.Babakhodjayeva olib borgan tadqiqot ishida aralash ta'lim o'zida an'anaviy, mustaqil va masofaviy ta'lim kabi shakllarni uyg'unlashtirgan ta'lim shakli ekanligi ta'kidlab, uning quyidagi modellarini ajratadi (1.1.1-rasm)⁴:



1.1.1-rasm. L.G.Babakhodjayevaning aralash ta'lim modeli

Aralash ta'lim zamonaviy ta'limning trendiga aylanib, tobora ommalashib borayotgan shakli bo'lib, onlayn o'quv mashg'ulotlari hamda o'qituvchi rahbarligida auditoriyada an'anaviy ta'lim olishga asoslangan o'qitish shaklidir.

Aralash ta'lim Jon Dyuning progressivistik nazariyasiga asoslanadi. (Dyui, 1910). Progressivistik nazariya o'qituvchi yetaklovchi va rahbar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Ammo, bu nazariya o'quvchilar sinfda mustaqil harakat qilishlari, bilimlarni o'zlashtirish natijalari hamda vaqtlarini boshqarishi kerakligini ham inkor etmaydi. (Dyui, 1910). Aralash

⁴ Babaxodjaeva L.G. Talabalarning pedagogik kompetentligini rivojlantirish jarayonida aralash ta'lim modelini joriy etishning nazariy va amaliy asoslari, avtoreferat.- T.: CHDPU, 2021.- 16 b.